

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURDIYEVA NIGORA SAIDOVNA

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING ETNOPEDAGOGIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi fani misolida)

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) on
Pedagogical Sciences**

Turdiyeva Nigora Saidovna

Bo'lajak o'qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish
metodikasini takomillashtirish.....3

Турдыева Нигора Саидовна

Совершенствование методики развития этнопедагогических компетенций
будущих учителей.....23

Turdiyeva Nigora Saidovna

Improving the methodology for developing prospective teachers ethnopedagogical
competencies.....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works49

TURDIYEVA NIGORA SAIDOVNA

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING ETNOPEDAGOGIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped.7920 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bdpu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ro‘ziyev Nodir Qayumovich**
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Saidova Mohinur Jonpo‘latovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

S.Q. Qahhorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

F.X. Xazratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d (PhD)

H.O. Jo‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Disseptatsiya mavzusining dolzabligi va zarurati. Jahon miqyosida oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilish, ta'limning milliy asosini mustahkamlash, madaniy merosni saqlash va davom ettirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega. "2030-yillarda Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)" da ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar va xalq pedagogikasi tajribalari bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarning etnopedagogik kompetensiyasini rivojlantirish, ularni turli madaniyatlarga hurmat bilan qarashga, o'z milliy va umuminsoniy qadriyatlarini anglab yetishga o'rgatish, global dunyoda muvaffaqiyatli yashash va hamkorlik qilishiga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo hamjamiyatida bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini obyektiv baholashga oid aniq metodikalar va indikatorlar ishlab chiqishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligini mukammallashtirish, madaniyatlararo muloqot, milliy o'ziga xosliklarni anglash, xalq pedagogikasining zamonaviy tatbiqlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish masalalariga alohida o'rin ajratilgan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda turli madaniy muhitlarda samarali muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid yangi tashabbuslarni ilgari surish va ularni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda, milliy pedagogik g'oyalarni integratsiya qilish, "...asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayangan holda" yoshlar qalbi va ongiga milliylikni singdirish, ularni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab qo'yildi. Shu asosda, bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash va uni qadrlash, globallashuv sharoitiga moslashish va etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish oliy ta'limning ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori hamda

sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. "Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-marifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda o'zbek xalqining etnopedagogik qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar Z.F.Mirtursunov A.K.Munavvarov, M.Maxmudova, M.O.Inomova, O. Musurmonova, M.Quronov va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy ishlarida aks etgan. Xususan, zamonaviy o'qitish texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta'limda innovatsion texnologiyalar muammosi G.O.Yernazarova, N.V.Yusupova, M.I.Mirzayeva va boshqa olimlar tomonidan tadqiq yetilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan N.A.Galaktionova, Sh.M.X.Arsaliyev, V.M.Grigorev, N.V.Silistraru, B.Sh.Aliyeva, N.L.Maksimova, S.M.Mordanova, T.S.Shauxalov, M.M.Mamadnosirova va boshqalar etnopedagogikaning ilmiy-amaliy masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. AQSh va Yevropa davlatlarida etnopedagogikaning xalq turmush tarzi, milliy ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirishdagi muammolari A.Kardiner, R.Benedikt, M.Mid va boshqa shu kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni anglatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari o'z yechimini kutayotgan masala sifatida bugungi kunda global ta'lim muhiti uchun dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasining 2030-yilgacha "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

zamonaviy bilimlar kontekstida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanining etnodidaktik imkoniyatlarini ilmiy asoslash;

bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tamoyillari hamda baholash mezonlarini takomillashtirish;

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanini o‘qitishga asoslangan etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali modelini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo‘lib, unda Buxoro, Navoiy, Andijon davlat universitetlarida tahsil olayotgan boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari tajriba guruhlarida 174 nafar, nazorat guruhlarida 173 nafar respondent sifatida jalb qilindi.

Tadqiqot predmetini “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani misolida bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining mazmuni, vositalari, texnologiyalari, yondashuvlari hamda o‘qitish usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, so‘rovnoma, suhbat, qiyosiy tahlil, sintez, loyiha texnologiyasi, keys stadi, “Mening o‘lkam pedagogik merosi” interaktiv xaritasi loyihasi, pedagogik tajriba-sinov kabi metodlardan foydalanilgan; shuningdek, tadqiqot natijalari matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ta‘lim muhitini milliy-ma‘naviy ruhda tashkil etishdagi etnomadaniy talablar mazmunini oddiydan murakkabga qarab bosqichlarga bo‘lish, shaxsiy va ijtimoiy jihatlarini ta‘limiy-rivojlantiruvchi maqsadlar bilan izchil uyg‘unlashtirishni transformatsiya qilish orqali aniqlashtirilgan;

zamonaviy bilimlar kontekstida “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanini o‘qitishning etnodidaktik imkoniyatlari talabalarning milliy identiteti, madaniy qadr-qimmat, akademik bilimlari, o‘z madaniyatiga nisbatan qiziqish va hurmatini rivojlantiruvchi etnopedagogik tafakkur, milliy g‘oyaga sodiqlik, madaniy ong va etnomadaniy muloqot qobiliyatlarini o‘z ichiga oluvchi “innovatsion madaniy-axloqiy integratsiya” komponentlarini aniqlash orqali ilmiy asoslangan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli mahalliy va global madaniyatlarni integratsiyalovchi “360 daraja” fikr-mulohaza yuritishga oid baholash mezonlarining reproduktiv, produktiv, aksiologik, akmeologik darajalarini aniqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Etnomadaniyat orqali ta‘lim” platformasini yaratish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmuni talabalarda madaniy muloqot va tolerantlik salohiyatini oshirishda milliy-didaktik kutubxona va virtual laboratoriyalardan foydalanishga asoslangan o‘quv jarayoni paradigmasini tizimli tashkil etuvchi “flipped classroom” texnologiyasini joriy etish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning etnomadaniyatga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirish

va dars jarayonida etnopedagogik kompetensiyani rivojlantirish sharoitlarini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi mualliflik texnologiyasi ishlab chiqildi;

mazkur fan asosida bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan noan'anaviy dars ishlanmalari, interfaol o'yinlar va topshiriqlar banki yaratildi, shuningdek, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" nomli darslik nashr qilinib, amaliyotga tatbiq etildi;

bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan takomillashtirilgan ta'lim modeli ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Shu bilan birga, viloyatlardagi Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilar va o'qituvchilar uchun maxsus seminar-treninglar tashkil etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yoshdashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi; ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilarda etnomadaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy va metodik asoslarni aniqlash, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar, metodlar hamda texnologiyalar mazmunini chuqur tahlil qilish va ularga kompleks yondashuv asosida etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan muhitni yaratishga doir ilmiy asoslangan ko'rsatma va takliflarni ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Tadqiqotda olingan natijalarning amaliy ahamiyati esa taklif etilgan mualliflik texnologiyalari va yaratilgan ta'lim modeli asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarni yanada chuqurlashtirish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvlar Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari, shuningdek talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda samarali vosita sifatida qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari etnomadaniy talablar mazmunini oddiydan murakkabga qarab bosqichlarga bo'lish, etnomadaniyatning shaxsiy va ijtimoiy jihatlarini ta'limiy-rivojlantiruvchi maqsadlar bilan izchil uyg'unlashtirish orqali aniqlashtirilgan xulosalardan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan bakalavriat talabalari uchun yaratilgan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" darsligi mazmuniga singdirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'i, №149110 guvohnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda

etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali milliy qadriyatlarni anglash, o'zlikni tanish, mentalitet va xalq madaniyatiga hurmat, shuningdek vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy mazmun muayyan darajada boyitilishiga erishildi;

zamonaviy bilimlar kontekstida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanining etnodidaktik imkoniyatlari etno-pedagogik tafakkur, milliy g'oyaga sodiqlik, madaniy ong va etno-madaniy muloqot qobiliyatini o'z ichiga oluvchi "madaniy-axloqiy integratsiya" komponenti bilan boyitilganligi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalardan "Xalq pedagogikasi" darsligi mazmuniga singdirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug'i, №793254 guvohnoma) Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda turli madaniyat, millat, din va urf-odatlariga nisbatan bag'rikeng munosabatni rivojlantirish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, madaniy xilma-xillikda samarali muloqot va hamkorlik qilish, shuningdek, o'quv jarayonida madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati samarali darajada oshirildi;

bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tamoyillari ko'pfaktorli monitoring tizimi hamda "360 daraja" fikr-mulohaza yuritishga oid baholash mezonlarining aksiologik, produktiv, reproduktiv, akmeologik darajalarini maqsadli belgilash asosida takomillashtirilgan taklif va tavsiyalardan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi" nomli o'quv qo'llanma mazmunini boyitishda foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'i, №149111 guvohnoma). Natijada, talabalarda madaniy xilma-xillikka asoslangan ijtimoiy muloqot kompetensiyasi rivojlantirish usullaridan foydalanish orqali ularda madaniy sezgirlikni anglash, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanish darajasi oshdi;

bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tamoyillari ko'pfaktorli monitoring tizimi hamda "360 daraja" fikr-mulohaza yuritishga oid baholash mezonlarining aksiologik, produktiv, reproduktiv, akmeologik darajalarini maqsadli belgilash asosida takomillashtirilgan tavsiyalardan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavriat talabalari uchun yaratilgan "Qiyosiy pedagogika" nomli darslik mazmunini boyitishda foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i, №388-125 guvohnoma), Natijada talabalar turli madaniyatlar bilan tanishish jarayonida yangicha fikrlash, innovatsion qarashlar ilgari surish, shuningdek, o'z dunyoqarashini kengaytirish, kreativ yondashuvni rivojlantirish kabi muhim kompetensiyalarni egallashga erishdilar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda keng muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 21 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, shulardan 2 ta darslik, 1 ta o'quv

qo‘llanma, 1 ta monografiya, 1 ta mualliflik guvohnomasi, 5 ta O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida maqola, 7 ta xalqaro va respublika konferensiya materiallarida o‘z aksini topgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ilmiy ish kirish qismi, 3 ta asosiy bob, 8 ta fasl, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida etnopedagogika tushunchasining mazmuni va mohiyati, bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda etnopedagogik kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyati masalalari yoritilgan.

Etnopedagogika - bu pedagogik jarayonlar va ta‘lim tizimlarini etnik, madaniy va ijtimoiy kontekstda o‘rganadigan ilmiy soha bo‘lib, u ta‘lim jarayonida turli etnik va madaniy guruhlar o‘rtasida muloqotni, o‘zaro anglashuvni va hamjihatlikni ta‘minlash maqsadida muhimdir. Etnopedagogika ta‘limning ijtimoiy, madaniy va etnik o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda, har bir talabaning o‘z kelib chiqishi va madaniy merosini hurmat qilishni nazarda tutadi. Adabiyotlarni o‘rganish jarayonida etnopedagogika madaniy meros, etnik identiklik, hamkorlik hamda talim tizimining globollashuvga ta‘sirini o‘rganishga oid dolzarb masalalarga yechim topishi ilmiy asoslandi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Etnopedagogikaning dolzarbligi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, etnopedagogika ta'lim jarayoniga etnik va madaniy o'lchovlarni kiritish bilan talabalar dunyoqarashini kengaytirishga va ijtimoiy - madaniy o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Etnopedagogik madaniyat esa ilmiy atama sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Tadqiqotchilar bu tushunchani shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab hodisa sifatida ko'rib chiqib, uni har tomonlama tahlil qilishga harakat qilishgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Etnopedagogik madaniyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega jihati

Muallif	Mohiyati
Etnopedagogik madaniyat, shaxsiy hodisa sifatida	
G.Gaysina (2002)	Madaniy omil shaxs rivojlanishida muhim rol o'ynab, uning shaxsiy yondashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Ma'naviy dunyoni rivojlantirish va madaniy o'zlikni anglash – madaniyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur o'rganishni talab qiladi
G.Korolyova (2011)	Etnomadaniy jihatdan barkamol shaxs - bu o'z millatining madaniy merosi va qadriyatlarini biluvchi, axloqiy fazilatlar va kasbiy malakaga ega, bilim va ko'nikmalarini real hayotda qo'llay oladigan, madaniy muhitda ongli harakat qiluvchi va javobgarlikni his qiladigan yetuk insondir. U jamiyatda madaniy barqarorlik va bag'rikenglikni rivojlantirishda faol ishtirok etadi
P. Ishanov K.Abdubakirova D.Kadirbayeva G.Jangojina (2017)	Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda etnopedagogik kompetentsiyani rivojlantirish muhimdir. Zamonaviy ta'lim pedagogdan nafaqat bilim va kasbiy tayyorgarlikni, balki milliy qadriyatlarni chuqur anglab, ta'limda samarali qo'llashni ham talab qiladi. Bu esa shaxsiy mas'uliyat, madaniy sezgirlik va ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi
Etnopedagogik madaniyat, ijtimoiy hodisa sifatida	
S.Fyodorova (2006)	Hozirgi pedagogik dasturlar etnik-madaniy bilimlarni to'liq qamrab olmayapti va o'qituvchilar etnomadaniy vazifalarda jamiyat talablariga javob bermayapti. Shuning uchun bo'lajak pedagoglar xalq an'analarini chuqur o'rganib, ularning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanishni o'zlashtirishi zarur
P.Terexov (2003)	Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda xalqning tarixiy va madaniy merosidan samarali foydalanish, shaxsiy va ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish hamda ijtimoiy-madaniy va pedagogik tayyorgarlikni uyg'unlashtirish orqali zamonaviy pedagogik kompetentsiyani rivojlantirish zarurdir
Ye.Nenkina	Muayyan xalqning tarixan shakllangan pedagogik tajribasi va g'oyalari majmui bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashda etnomadaniy qadriyatlarga tayanadi
G.Nezdemkovskaya	Ko'p asrlik an'analar va madaniy yutuqlarni o'zida mujassam etgan bu omil jamiyatning turli sohalarda shakllanishi, rivojlanishi hamda barqaror taraqqiyotining mustahkam poydevor
T.II'ina	Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti va o'zini anglashiga xizmat qiluvchi, shu bilan birga, jamiyatda madaniy uyg'unlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan muhim tarbiyaviy omildir

G.N. Volkovning ta'kidlashicha, etnopedagogik madaniyat – bu xalqning qadimiy tarbiyaviy tajribasini o'zida mujassam etgan tushuncha bo'lib, u bolalar ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirilgan allalar, xalq o'yinchoqlari, milliy o'yinlar, og'zaki ijodiy meros kabi boy va rang-barang tarkibiy qismlardan iborat tizimni o'z ichiga oladi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik kompetentlikni tarkib toptirish nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, balki ijtimoiy adolatni, madaniyatlararo munosabatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga va o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Etnopedagogik kompetensiya - bu ta'lim jarayonida o'qituvchilar va boshqa pedagogik xodimlarning turli etnik va madaniy guruhlar vakillari bilan samarali muloqot qilish, ularga mos ta'lim berish va ularning madaniy xarakteristikalarini inobatga olish mahoratidir. Bu kompetensiya, pedagogik faoliyatning etnik masalalari va madaniy kontekstini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ehtiyojlarini, qiziqishlarini va ularning kelib chiqishi bilan bog'liq xususiyatlarini tushunishga qaratilgan.

O'tkazilgan so'rovnomalar hamda tajriba-sinov natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning etnopedagogik kompetentligini rivojlantirish madaniy meros va an'alarini tushunish; ijtimoiy adolatni ta'minlash; turli muammolarni hal qilish; pedagog sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ta'limda individual yondashuvlarini amalga oshirish; o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va yuksak axloqiy me'yorlarni shakllantirishga yordam berishi o'z isbotini topdi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda etnopedagogik kompetensiyani rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Madaniy xabardorlikni oshirish.
2. Ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash.
3. Individual yondashuvni rivojlantirish.
4. Milliy merosni asrash va avlodlarga yetkazish.
5. Kasbiy kompetensiya va ijtimoiy mas'uliyatning oshishi.

Demak, etnopedagogik kompetensiyaga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar jamiyatdagi madaniy xilma-xillikni e'tiborga olgan holda yanada professional va mas'uliyatli bo'ladilar.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fanini o'qitishda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy asoslangan, “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fanini o'qitish asosida bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli hamda etnopedagogik kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini baholash usullari va shakllariga oid ilmiy metodik tavsiyalar keltirilgan.

Ta'lim jarayonida etnopedagogik yondashuvdan maqsadli foydalanish bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga milliy qadriyatlar, xalq donishmandligi va axloqiy me'yorlar asosida tayyorlash imkonini kengaytiradi, shuningdek,

etnopedagogik kompetensiyasini oshiradi. Bo'lajak o'qituvchining etnopedagogik kompetensiyasi quyidagi komponentlardan iborat (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchining etnopedagogik kompetensiyasi komponentlari

“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fanini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarga madaniy - etnik farqlarni hisobga olish, jamiyatdagi ijtimoiy madaniy xususiyatlar, o‘quvchilarning kelib chiqishi va turli millat an‘analarini qo‘llashni o‘rganishda yordam berish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga erishildi.

“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fanini o‘qitish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning quyidagi didaktik imkoniyatlari aniqlandi:

- individual yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va madaniy xususiyatlari hamda ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish;

- heterogen guruhlarda hamkorlikda o‘qitish va o‘zaro ta’limni yo‘lga qo‘yish orqali etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish;

- multimadaniy ta’lim resurslari, jumladan turli madaniyatlar, an‘analar, ertak va hikoyalardan foydalanish orqali darslar mazmuni va jozibadorligini oshirish;

- amaliy mashg‘ulotlar, guruhiy muhokama va muloqotlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniyatlararo tajribasini kengaytirish;

- etnopedagogik tamoyillarga asoslangan modul va loyihalarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini madaniy xilma-xillikni hisobga olgan holda rejalashtirish;

- etnopedagogik kompetensiyalarni 360 daraja baholashda ijtimoiy empatiya va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini hisobga olish.

Tadqiqot davomida “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fani asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish ularning akademik muvaffaqiyatlariga hamda kelajakda ijtimoiy muhitni mustahkamlashga ijobiy ta’sir qilishi muayyan darajada aniqlashtirildi.

“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fanini innovatsion yondashuv va etnopedagogik tamoyillar asosida tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarda xalq pedagogikasiga tayangan pedagogik g‘oyalarni yaratish, hamkorlikda bilim va tajribalarni egallash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, zarur etnopedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish hamda shaxsiy va kasbiy sifatlarni insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida rivojlantirishni ta’minlaydi (2-jadvalga qarang).

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanidan bolajak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi innovatsion yondashuvlar

Yondashuv	Mazmuni	Etnopedagogik kompetensiyani rivojlantirishdagi roli
Aksiologik	Shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash	Milliy an‘analar, urf-odatlar va madaniy merosga hurmatni qaror toptiradi, o‘quvchilarda tolerantlik va madaniyatlararo hurmatni rivojlantiradi
Integrativ	Turli fanlar, bilimlar va pedagogik tajribalarni uyg‘unlashtirish	Etnopedagogik bilimlarni boshqa pedagogik, psixologik va ijtimoiy fanlar bilan bog‘lash orqali yaxlit kompetensiyani shakllantiradi
Kreativ	Ijodiy fikrlash va yangicha pedagogik yechimlarni qo‘llash	Milliy madaniyat elementlaridan foydalangan holda innovatsion dars metodlarini ishlab chiqish va qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi
Akmeologik	Shaxsning kasbiy va shaxsiy kamolot cho‘qqisiga erishishini ta‘minlash	Bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini doimiy rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish va kasbiy yetuklikka intilishini rag‘batlantiradi

Ta‘lim modelining asosiy elementlari: ma‘lumotlar va bilimlardan iborat madaniy kontekst; etnologiya va psixologiya, pedagogik yondashuvlar, inkorporativ ta‘lim, amaliy mashg‘ulotlar mazmuni; didaktik va interaktiv metodlar, o‘zaro ta‘lim; o‘qituvchining roli, madaniyatlararo diplomatiya, mentorlik va qo‘llab-quvvatlash; baholash va o‘lchash, ijtimoiy ko‘nikmalarni baholash, refleksiya dan tashkil topadi (3-rasmga qarang).



1. Kirish: Darsning maqsadi, vazifalari va mazmuni haqida umumiy ma'lumot beriladi



2. Faollashtirish: Talabalar kichik guruhlariga ajratilib, har bir guruh o‘zining madaniy merosi yoki an‘analariga oid ma'lumotlarni taqdim etadi



3. Muhokama: Taqdimotda ko‘rsatilgan asosiy g‘oyalar tahlil qilinadi, talabalarning fikr-mulohazalari eshitiladi




4. Amaliy mashg‘ulot: Madaniyat yo‘nalisiga oid badiiy, musiqiy yoki boshqa ijodiy faoliyatlar tashkil etiladi



5. Natijalar: Talabalar o‘z kuzatuvlari, taassurotlari va o‘zlashtirgan bilimlarini baholaydi, o‘qituvchi tomonidan umumiy xulosa qilinadi

3-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi dars mashg‘uloti bosqichlari namunasi

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanini o‘qitish jarayonida etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida “Flipped Classroom” innovatsion ta‘lim texnologiyasi asosida “Etnomadaniyat orqali ta‘lim” platformasi yaratildi (4-rasmga qarang).



4-rasm. “Etnomadaniyat orqali ta‘lim” platformasi oynasi

Flipped Classroom texnologiyasining asosiy mazmuni shundaki, nazariy bilimlar darsgacha mustaqil ravishda o‘rganiladi, dars jarayonida esa amaliy mashg‘ulotlar, muhokama, tahlil, va ijodiy faoliyatga urg‘u beriladi. Shu jihati bilan u an‘anaviy ta‘lim texnologiyalaridan farq qiladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

An‘anaviy ta‘lim texnologiyalari va Flipped Classroom texnologiyasi orasidagi farqlar

An‘anaviy ta‘lim texnologiyalari	Flipped Classroom texnologiyasi
Darsda o‘qituvchi tushuntiradi	Darsgacha talaba o‘zi o‘rganadi (video, matn, slayd)
Uyga vazifa - mashq, dars – nazariya	Uyda - nazariya, darsda - amaliyot va tahlil
O‘qituvchi markazda	Talaba markazda
Passiv eshituvchi	Faol ishtirokchi (savol, muhokama, taqdimot)

Flipped Classroom ta‘lim texnologiyasida ishlatiladigan asosiy vositalar:

Video-ma‘ruzalar darsgacha tomosha qilinadi, ma‘ruzalar matni, taqdimotlar, savol-javob, guruhli ishlash (darsda), interaktiv metodlar: muammo yechish, rolli o‘yinlar, jamoaviy bahs, refleksiya va mustahkamlovchi topshiriqlar

Flipped Classroom ta‘lim texnologiyasining maqsadi va afzalliklari:


“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanini o‘qitishda talabalarning tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, talabalarni darsda faollashtiradi, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘qituvchiga har bir talabaning qayerda qiynalayotganini aniqlashga yordam beradi, har bir talaba o‘z sur‘atida o‘rganadi (videoni qayta ko‘rish imkoniyati)(4-jadvalga qarang).

4-jadval

Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan faollashtiruvchi metodlar

T/r	Fan mavzulari	Qo‘llanilgan metodlar	
		Nazariy mashg‘ulotda	Amaliy mashg‘ulotda
1	Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasida eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta‘lim-tarbiya va pedagogik fikrlar rivojlanishi	“Tarixiy detektivlar” o‘yini, “O‘yla, izla, top”, “Qatorni to‘ldir”	Loyiha, keys stadi, assessment, kichik guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash
2	VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar	“Zanjirli so‘zlar” o‘yini, “Reklama”, “Mushohadalar jadvali”	
3	IX-XII asrlar SHarq Uyg‘onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi	“Ilmiy sayohat” o‘yini, Bahs-munozara, Venn diagrammasi, Izohli jadval	
4	Sharq pedagogik ta‘limotida ta‘limiy-axloqiy qarashlar	“Axloqiy muhokama” o‘yini, klaster, “T chizma”	
5	XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda movaraunnahrda boshlang‘ich maktabda tarbiya	“Tarixiy teatr” o‘yini, disput, “Smart-juftini top”	
6	XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya va pedagogik fikrlar rivoji	“Ta‘lim piramidasi” o‘yini, “Intellektual aerobika”, “Mulohazalar zanjiri”	
7	Hozirgi davrda jahon mamlakatlari boshlang‘ich ta‘lim tizimi va pedagogika fani rivoji	“Dunyo ta‘lim xaritasi” o‘yini, Bilimlar auksioni, “Qiyosiy jadvalni to‘ldir”	

Ushbu tadqiqot natijalari asosida bo‘ljak o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modeli takomillashtirildi (5-rasmga qarang).



5-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli

Ushbu ta'lim modeli bo'lajak o'qituvchilarni etnopedagogik kompetensiyalar bilan ta'minlash uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Model bo'lajak o'qituvchilarni madaniy xilma-xil ta'lim muhitida yashashga, o'zaro anglashuvga, hamjihatlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, pedagogik jarayonni yanada samarali va mazmunli qiladi. Bo'lajak o'qituvchining etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikalari o'zining samaradorligini ko'rsatdi. Bo'lajak o'qituvchilarning milliy ruhiyatga oid tafakkuri, qadriyatlarni anglash darajasi va ularni o'qituvchilikda puxta qo'llash layoqati asosiy mezon sifatida qaraladi.

Tadqiqot asosida etnopedagogik kompetensiya, ya'ni bo'lajak o'qituvchining turli madaniyatlar va an'analariga mansub o'qituvchilar bilan samarali ishlash qobiliyati, bir nechta muhim elementlardan iboratligi ilmiy asoslandi. Jumladan,

- o'qituvchilar va ularning madaniyati, an'analarini tushunish va hurmat qilish qobiliyati;

- ommaviy adabiyot yoki san'at orqali turli madaniyatlar haqida ma'lumot olish;

- turli etnik guruhlar va ularning tarixi, urf-odatlar, tillari va boshqa madaniy xususiyatlari haqida bilimlar;

- etnopedagogik nazariyalar va amaliyotlar haqidagi bilimlar;

- o'qitish jarayonida madaniy farq va muammolarni hisobga olgan holda, ta'limning individualizatsiyasi'

- o'quv jarayonida o'qituvchilarni samarali jalb qilish va ularning ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim uslublarini qo'llash;

- o'qituvchilarning ruhiy holatini tushunish va etnik muammolarni hal qilishda ularga yordam berish;

- xalqaro va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, tarbiyaviy muhit yaratish;

- o'qituvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, turli madaniyatlar vakillari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish;

- o'quv jarayonida o'zaro hurmat va tushunishni ta'minlash;

- o'zgaruvchan va turli madaniy sharoitlarda samarali ishlash qobiliyati;

- o'qituvchilar va ularning ortiqcha ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini rekonstruksiyalash;

- o'z ta'lim jarayonini va usullarini tahlil qilish, takomillashtirishga harakat qilish;

- etnopedagogik tajribalarini kuzatish va ularni o'z ishida qo'llash.

Ushbu elementlar bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va talabalar bilan ishlashda ularning samaradorligini oshirishga, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunli va natijali tashkil etish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim olish jarayonida doimiy ravishda o'zini o'zi baholash va o'z darajasini aniqlab o'z ustida muntazam ishlash, bo'lajak o'qituvchining pedagogik bilim va mahoratini oshirib boradi. Etnopedagogika sohasida innovatsion g'oyalar ishlab

chiqishga va yangi ta'lim uslublarini yaratishga zamin tayyorlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarda kelajakda keng ko'lamli ta'lim jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyati oshadi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlari va uning natijalari”** nomli uchinchi bobida Bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid tajriba - sinov ishlarini tashkil etish metodikasi va tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili va samaradorlik darajasi, statistik tahlili haqida ma'lumotlar berilgan.

Pedagogik tajriba – sinov oliy ta'lim muassasalarida “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fanini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlash, shuningdek, “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” faniga doir shart-sharoitlarning talabga javob berish darajasini va yaratilgan pedagogik o'quv-uslubiy qo'llanmalarining amaliyotdagi samaradorligini aniqlash maqsadida qo'llanildi.

